
KUNCHIQAR YURT VAKILLARI – RISHTONDA!

2022 yilning 4 noyabr sanasida memorandum doirasida ikki birodarlashgan tumanlar o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirish maqsadida Yaponiyaning Kioto prefekturasi Mayzuru shahri hokimligi vakillari - Xiroshi Kodzima, Suboutsi Yoshinori, Kuba Marino, Asilbek Ahmedovlar Rishton tumaniga tashrif buyurishdi. Yaponiyalik mehmonlar tantanali tarzda kutib olindi. Tuman hokimi Sufxonjon Soliev delegatsiya vakillarini qabul qildi. Uchrashuv avvalida tuman hokimi "Kunchiqar yurt" vakillariga tashrif uchun minnatdorchilik bildirib, har ikkala mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiya va turli sohalarda hamkorlikni davom ettirishga tayyor ekanligini bildirib o'tdi. Uchrashuv davomida shuningdek, kelajakdagi rejalar borasida ham kelishib olindi.

KADJIMA XIROSHI: "O'ZBEKISTON MEN UCHUN QADRLI"

Delegatsiya rahbari Kadjima Xiroshi uchrashuvlar davomida yurtimiz haqida taassurotlari bilan ham o'rtoqlashdi. - Yurtingizda olib borilayotgan islohotlar, quyoshli mamlakat xalqining mehnatsevarligi va mehmondo'stligi yapon xalqi udumlariga juda ham mos keladi. Men O'zbekistonga, xususan, Rishtonga to'rtinchi marta kelishim, bu mamlakat men uchun juda qadrli. Har safar rishtonlik meni hayron qoldirishadi. Yaponiyaga bo'lgan qiziqishlarini aytmaysizmi? O'zimning ham Rishtonga mehrim bo'lakcha. 23 yildan beri faoliyat olib borayotgan yapon maktabini yurtimizda yaxshi bilishadi. "Rishton-Yaponiya" madaniy iqtisodiy aloqalar markazidagi sharoitlar menga ma'qul bo'ldi. O'zaro hamkorligimiz yanada samarali bo'lishiga ishonaman.

YAPON MAKTABIGA TASHRIF

Yaponiya delegatsiyasi a'zolari Rishton tumanida joylashgan "Rishton-Yaponiya" madaniy iqtisodiy aloqalar markaziga ham tashrif buyurib u yerda tahsil olayotgan o'quvchilar bilan uchrashdilar. Rishton tumanidagi "Noriko - Gakkyu" yapon tili maktabida yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Yapon maktabi o'quvchilari tomonidan ijro etilgan Yaponiya madhiyasi mehmonlar uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi.

KULOLCHILIK MUZEYIDA

Delegatsiya vakillarining so'nggi manzili usta kulol Ravshan Tojiddinov tomonidan tashkil etilgan «R+Koron» kulolchilik muzeyi bo'ldi. Bu yerdagi san'at asarlari yaponiyaliklarni lol qoldirdi. - Rishton kulolchiligi meni o'ziga rom etdi. Bu yerdagi ishlarning barchasi qo'l mehnati orqali bajarilishi juda ahamiyatlidir. Mamlakatimizda bunday san'at asarlarini qadrlashadi. Taassurotlarimni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, deydi Suboutsi Yoshinori. Tashrif yakunida mehmonlarga sovg'alar topshirildi.

2022-11-04 14:42:24